

“Yangi O‘zbekiston yoshlari, birlashaylik!” shiori ostidagi "Zakovat" intellektual o'yinlari Muhtasham Poyi Kalon majmuasida tashkillashtirilgan.

BAYONNOMASI

10.06.2025 y.

Buxoro shahar

Qatnashdi:

Buxoro viloyati hokimi Botir Zaripov, BuxDU rektori Obidjon Xamidov, Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha 1-prorektor D.SH.Yavmutov, Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti tyutorlari va talaba yoshlari

KUN TARTIBI:

“Yangi O‘zbekiston yoshlari, birlashaylik!” shiori ostidagi yoshlar festivali bo'lib o'tmoqda.

Ayni damda Buxoro shahridagi “Poyi Kalon” majmuasi, “Shahriston” maydoni va “Ark” qo'rg'oni atrofida “Besh tashabbus” doirasidagi ko'rgazma va loyihalar, “Zakovat” intellektual o'yinlari o'tkazilmoqda. Ushbu tadbirlarda Buxoro davlat universiteti rektori Obidjon Xamidov boshchiligidagi universitet jamoasi, talaba-yoshlari ishtirok etishmoqda.

“Yangi O‘zbekiston yoshlari, birlashaylik!” shiori ostidagi "Zakovat" intellektual o'yinlari Muhtasham Poyi Kalon majmuasida tashkillashtirilgan.

Ochilish o'yinini kirish so'zi bilan boshlab bergan viloyat rahbari, ishtirokchi yoshlarni bayram bilan qizg'in tabriklab, jamoalarga muvaffaqiyatlar tiladi.

Sahnada "Zakovat" o'yinlarining g'oliblarini tantanali taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.

Yakuniy natijalarga ko'ra,

1-o'rinni - Buxoro davlat tibbiyot institutining "Dream team" jamoasi;

2-o'rinni - Buxoro davlat universitetining "F8" jamoasi;

3-o'rinni - Buxoro davlat texnika universitetining "Misteriya" jamoasi qo'lga kiritdi.

G'oliblar viloyat hokimi Botir Zaripov tomonidan diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanishdi.

QAROR QILINDI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-yanvardagi PQ-96-sonli qarorida belgilangan vazifalar ijrosi doirasida fakultetda mazkur turnirni doimiy ravishda o‘tkazish;
2. Talabalar salohiyatini oshirish, ularning dunyoviy ilmlarni yanada chuqur egallashi, eslab qolish, miyani charxlashi uchun “Zakovat” intellektual o‘yinini tez-tez o‘tkazish.

Bayonlashtirdi magistr



Sattarov.A.A

BAYONNOMASINI ASOSLOVCHI FOTO SURATLAR

